

## FAROBIY QARASHLARIDA BAXT VA JAMIYAT UYG‘UNLIGI

**Zaribova Mo‘tabar**

*Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi baxt va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Muallif baxtni yakka shaxs emas, balki fozil jamiyat a’zosi sifatida talqin etadi. Maqolada Farobiyning baxt, axloq, ilm va ijtimoiy uyg‘unlik haqidagi qarashlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Fozil jamiyat, baxt, axloq, ilm, uyg‘unlik, rahbar, falsafa, ma’naviyat

**Abstract.** This article analyzes the issue of the relationship between happiness and society in Abu Nasr Al-Farabi's "City of Virtuous People" from a philosophical perspective. The author interprets happiness not as an individual, but as a member of a virtuous society. The article analyzes Al-Farabi's views on happiness, morality, science, and social harmony, and highlights their significance for modern society.

**Keywords:** Virtuous society, happiness, morality, science, harmony, leader, philosophy, spirituality

Bizning zamin azal-azaldan madaniyat va ziyo maskani, hamda madaniy merosga, yuksak qadriyatlarga ega xalqdir.

Mashhur mutafakkirlarimiz Beruniy, al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, al-Buxoriy, al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud kabi yurtimizda yashab ijod qilgan ko‘plab buyuk siymolar jahon fani, madaniyat va sivilizatsiyaga o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shganlar.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o‘z nutqida doimo xalqimizning boy, madaniy merosini izchillik bilan o‘rganishga, yoshlar madaniyatini shakllantirishda, rivojlantirishda foydalanishga da’vat etib kelmoqdalar. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun ajdodlarimizning madaniy-ma’naviy boyligini chuqur va har tomonlama o‘rganishimiz darkor" [1].

Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma’naviyatiga ega bo‘lgan insonlar zarur. Zero, zaminimizda yashab o’tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisi ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim»[2].

Ma’naviy boyliklarni yaratgan buyuk siymolar merosini o‘rganish va o‘zlashtirish, bo‘yicha keng ta’lim-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot va o‘quv-uslubiy ishlarni olib borishni talab etadi. Ular mustaqillik sharoitida yosh avlodni milliy madaniy boyliklarni yaxshi bilgan,

milliy g'urur. vatanparvarlik hissi bilan yo'g'rilgan, dunyo madaniy rivojlanish darajasidan xabardor bo'lib yetishuvida yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo hududida butun musulmon dunyosiga o'zlarining asarlari bilan tanilgan, mintqa, xususan o'zbek faniga asos solgan, ajdodlarimizning ilmiy yutuqlarini xotirada saqlab, jahon ilmiy tafakkurini oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ular olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi[3]

Mana shunday buyuk alloma, musulmon Sharq falsafasining zabardast vakillaridan biri Abu Nasr Farobiydir.

Farobiy asarlari Sharq va G'arb olimlarini haligacha bilim doirasining kengligi bilan hayratga solib kelmoqda. Uning "Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Fozil odamlar shahri" kabi asarlarida hayotning ko'p masalalari, davlatni boshqarish, davlatning vazifalari, insonning jamiyatdagi o'rni va burchi, axloq, ta'lif- tarbiya, shuningdek, shaxsning rivojlanish muammolari bayon qilinadi.

Uning "Fozil odamlar shahri" asari alohida ahamiyatga ega.

Ushbu "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatning mukammal shakli, insonning ma'nnaviy kamoloti va haqiqiy baxt tushunchalari chuqur falsafiy yondashuvda tahlil etilgan.

Farobiy nazarida baxt - bu faqat moddiy farovonlik emas, balki ruhiy va aqlan yuksalish, yuksak ma'nnaviyatga erishish orqali hosil bo'ladigan komil hayot holatidir. Bu yuksak holat esa, mutafakkirning fikricha, faqat ijtimoiy uyg'unlik va aql bilan boshqariluvchi jamiyatda ro'yobga chiqadi.

Farobiy fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot bo'lib, u o'z ehtiyojlarini to'laqonli qondirish, ma'nnaviy yetuklik sari intilish uchun jamiyatda yashashi, birgalikda yashashni o'rganishi kerak. Shuning uchun u jamiyatni o'zaro yordamga asoslangan tuzilma sifatida tasvirlaydi. Har bir shaxs o'z mehnati, aqliy salohiyati, axloqiy me'yorlari orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shmog'i lozim. Bu holatda, Farobiyning "fozil shahar" modeli - adolat, aql, axloq va ruhiy poklik ustun bo'lgan jamiyat idealidir.

Farobiy uchun haqiqiy baxt - bu aql bilan idrok etilgan, bilim bilan asoslangan va ma'nnaviyat bilan yo'naltirilgan hayotdir. U baxtni biror tashqi omil yoki tasodifiy holat sifatida emas, balki ilm, aql va komillikka asoslangan ijtimoiy hayot mahsuli sifatida ko'radi. Shu bois, uning fikricha, jamiyatning yetakchisi (hukmdor) ham donishmand, ma'rifatli va fozil bo'lishi shart. Faqat ana shunday yetakchi xalqni to'g'ri yo'lga boshlay oladi, adolat va axloq me'yorlariga asoslangan boshqaruv orqali fozil jamiyatni barpo etadi.

Farobiy jamiyatdagi uyg'unlikni ijtimoiy tabaqalanish, kasblar taqsimoti, har bir kishining o'z vazifasini anglab, uni halol va aql bilan ado etishi orqali ta'minlash mumkin, deb hisoblaydi. U bu g'oyalarni qadimgi yunon faylasufi Aristotel g'oyalari bilan uyg'unlashtirgan holda, musulmon sharqining ijtimoiy-falsafiy tafakkuriga moslab sharhlaydi.

Shu nuqtai nazaridan, Farobiy qarashlari hozirgi zamon uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazaridan, Farobiy qarashlari hozirgi zamon uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Zotan, bugungi kunda ham baxtli inson va uyg'un jamiyat ideallari, adolatli boshqaruv, ilm va axloq asosidagi yondashuvlar har qanday taraqqiyotning asosi sanaladi.

Farobiy nazarida baxt shunchaki individual muvaffaqiyat yoki shaxsiy huzur-halovat bilan cheklanmaydi. Aksincha, u baxtni jamoaviy yuksalish - ya'ni, har bir a'zosi o'z vazifasini ado etuvchi, bilim va axloqqa asoslangan uyg'un axloqqa asoslangan uyg'un jamiyatda erishiladigan oliy ne'mat sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning bu yondashuvi uning jamiyatshunoslikka oid qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi: u fozil shaharni mukammal jamiyatning namunasi sifatida ko'rsatadi va bu shaharda yashovchi odamlar bir-biriga fikran, ma'naviy va amaliy jihatdan bog'liq bo'ladi. Ular orasida mehr-oqibat, axloqiy birdamlik, bilimga intilish kabi qadriyatlar ustuvorlik qiladi.

Ushbu fikrlar asosida Farobiy jamiyatni quyidagicha tasniflaydi: fozil jamiyat va nofozil jamiyatlar.

Fozil jamiyat - bu axloqiy-ruhiy, barkamollik sari intiluvchi, ma'rifatli boshqaruv asosida faoliyat yurituvchi jamiyat bo'lib, unda har bir inson o'z hayot mazmunini anglaydi, baxt sari yo'l oladi. Nofozil jamiyatlar esa turli nuqsonlar, jaholat,adolatsizlik yoki axloqiy tanazzul natijasida yuzaga keladi. Farobiyning ushbu tahlili hozirgi zamon ijtimoiy tizimlaridagi muammolarni anglash uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Farobiy ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlovchi eng asosiy omil sifatida ilm va aqlni ko'rsatadi. U kishilarining jamiyatdagi o'z o'rnini anglashida ularning bir-biriga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishida aql va bilim hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisoblaydi. Agar jamiyat aql bilan boshqarilsa, unda adolat qaror topadi, tartib saqlanadi va bu barqarorlik odamlar qalbida baxt hissini uyg'otadi. Shuning uchun ham, Farobiy baxt sari eltuvchi jamiyat modeli ilm-fan, ma'rifat va axloq ustun bo'lgan tuzum deb hisoblaydi.

Farobiy o'z zamonining ijtimoiy-ma'naviy muammolarini chuqr tahlil qilgan holda, inson va jamiyat uyg'unligini nazariy asosda mustahkamlab berdi. U jamiyatdagi har bir a'zoning o'z mas'uliyatini to'g'ri anglashini, o'z vazifasiga halol yondashishini insoniy baxtning boshlanish nuqtasi deb bildi. Zero, jamiyat uyg'unligi - bu shunchaki tashqi tartib emas, balki ichki ma'naviy uyg'unlikdir. Farobiy uchun bu uyg'unlik inson qalbida shakllanadi, jamiyatda esa adolat, do'stlik, axloqiy poklik orqali namoyon bo'ladi.

"Insonga beriladigan birinchi imkoniyat bu- ilk, boshlang'ich bilimlardan foydalanib, yangi bilimga ega bo'lishdir. Inson shu imkoniyatlardan foydalanib, kamolotga yetishadi. Bu baxt- saodat bo'lib, unga yetishgan odamning ruhi bilan dunyoning moddiylikka xos g'am tashvishlardan qutulib, ruhiy olam mavjudotlarga yaqinlashadi. Ammo aql sohasida baxtga yetishib faol aql darajasiga ruh qisman aqliy, qisman jismoniy, erkin xatti- harakatlar bilan emas, balki me'yoriy va aniq, ravshan maqsadli harakatlar, amallar bilan yetishadi. Baxt- saodatga yetkazadigan ixtiyoriy erkin ish- harakatlar go'zal

ish- harakatlardir. Bularni keltirib chiqaruvchi xulq va odatlar fazilatlardir. Insonga fazilatlarni Tangri ato qiladi. Baxt- saodatga yetishuvga to'sqinlik qiluvchi ish- harakatlar xunuk, tuban ish- harakatlardir. Bularni keltirib chiqaruvchi yomon xulq va odatlar gunoh ishlar, noplak, tuban illatlardir. Insonning fikrlash quvvati orqali baxt- saodatga yetishni maqsad qilar ekan, u intilish quvvatiga farmon beradi, fikrlash quvvati tasavvur yordamida baxt- saodatga yetishuv uchun qanday ish- harakatlar qilish zarurligini bilib oladi. Bular go'zal, oliyjanob, ezgu ishlardir." deydi Farobiy o'zining "Baxt-saodat haqida so'z" bobida.

Xulosa qilib aytganda, Farobiy tafakkurida baxt tushunchasi insonning eng oliy maqsadi sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra, baxt bu - ilohiy va tabiiy qonunlarga muvofiq yashash, insoniylik fazilatlarini kamol toptirish hamda ruhiy osoyishtalik va aqliy barkamollikka erishishdir. Farobiy nazarida baxtga erishish uchun shaxs avvalo bilimli, aql-zakovatli, axloqli va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi zarur. Shuningdek, u insonning yolg'iz emas, balki jamiyat a'zosi sifatida qaralishini ta'kidlaydi. Bu esa baxt va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatning mukammal shakli - fozil jamiyat modelini tasvirlab beradi. Unda har bir kishi o'z vazifasini anglab, umumiy manfaatlar yo'lida harakat qiladi, bu esa ijtimoiy uyg'unlik va taraqqiyotga olib keladi. Bunday jamiyatda adolat ustuvor bo'lib, ilm, fazilat, axloq va aqlparastlik asosiy qadriyatlardir. Farobiy uchun fozil jamiyat bu faqat tashqi tartibga asoslangan tuzilma emas, balki ichki, ma'naviy uyg'unlikni o'zida mujassam etgan tizimdir.

Shu bois, Farobiyning qarashlari nafaqat o'z davrining ijtimoiy-falsafiy muammolariga javob beradi, balki bugungi kun jamiyatlari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki u inson baxtini individual yutuq sifatida emas, balki jamoaviy yuksalish, bir-birini tushunish, hamjihatlik va axloqiy qadriyatlar asosida barpo etilgan ijtimoiy tuzum bilan bog'laydi. Bu esa Farobiy merosining abadiyligi va har bir zamon uchun ma'naviy yo'lko'rsatkich ekanini ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: O'zbekiston, 2016-14 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.-B. 41.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-jild. T.: O'zbekiston, 1999.-B. 90.
4. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
5. <http://arxiv.uz>